2015 yilning yanvar-sentabr yakunlari bo'yicha “O'zkimyosanoat” AJ korxonalari faoliyati to'g'risida

// 07.10.2015
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2015-yilning-yanvar-sentyabr-yakunlari-buyicha-uzkimyosanoat-azh-korhonalari-faoliyati-tugrisida

2015 yilning yanvar-sentabr oylarida “O'zkimyosanoat” korxonalarida **1646,4** mlrd. so'mlik tovar mahsulot (o'sish sur'ati 104,1%) hamda **150,5** mlrd.so'mlik xalq iste'mol mollari (o'sish sur'ati 117,7%) ishlab chiqarildi.

Sof holda **954,6** ming tonna mineral o'g'itlar, shu jumladan 734,5 ming tonna azotli o'g'itlar, 105,5 ming tonna fosforli o'g'itlar va 114,6 ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

Mahalliylashtirish dasturiga muvofiq 2015 yil yanvar-sentabr oylarida **182,2 mlrd.so'mlik** mahsulot ishlab chiqarildi (prognoz 129,7 mlrd.so'm).

2015 yil Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni bajarish doirasida “O'zkimyosanoat” AJ korxonalari tomonidan **121,66 mln.dollar** hajmida investitsiyalar o'zlashtirildi va prognoz 100,2%-ga bajarildi.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjada tuzilgan shartnomalarga binoan **154 mlrd.so'mlik** mahsulot kompaniya korxonalari tomonidan sotib olindi.

162 yangi ish o'rni, shu jumladan kasanachilik asosida 46 ish o'rni yaratildi.

Xududiy «Qishloqxo'jalikkimyo» aksiyadorlik jamiyatlaridagi mavjud texnikalar yordamida qishloq xo'jaligi korxonalariga 2015 yil yanvar-sentabr oylari davomida **41420,3 mln.so'mlik** agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatildi. Jumladan, **1579,6 mln.so'mlik 456 ming tonna** kompost tayyorlandi va sotildi, **380,9 ming tonna** organik va **515** mineral o'g'itlar fermer xo'jaliklari ekin maydonlariga yetkazib berildi. **1003,9 ming gektar** g'alla va paxta maydonlarida mineral o'g'itlar sepilib, suspenziya tadbirlari o'tkazildi.

“O'zkimyosanoat” AJ matbuot xizmati”